

Siyosat bayonati

“Simplex ITC” MChJ QK quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

1. Atrof-muhit qonunchiligi va standartlariga rioya etish

- O‘zbekiston Respublikasida amal qilayotgan barcha mahalliy, milliy va xalqaro ekologik qonunchilik hamda me’yoriy hujjatlarga to‘liq rioya etish.
- Imkon qadar ushbu talablardan yuqori bo‘lgan zamonaviy va ilg‘or ekotexnik yondashuvlarni faoliyatda qo‘llash.

2. Ifloslanishning oldini olish va resurslardan samarali foydalanish

- Ishlab chiqarish, operatsion va ma’muriy jarayonlarni takomillashtirish orqali chiqindilar hajmini minimallashtirish.
- Innovatsion texnologiyalar va xodimlarning jalb etilishi orqali energiya, suv va xom ashyolardan tejamkor foydalanishni ta’minlash.
- Havo, suv va tuproqning ifloslanishini oldini olishga qaratilgan choralarini joriy etish.

3. Barqarorlik va uzlucksiz rivojlanish

- Xaridlar, operatsion faoliyat va loyihalarni amalga oshirishda barqaror rivojlanish tamoyillarini izchil qo‘llash.
- Atrof-muhit holatini uzlucksiz yaxshilash maqsadida aniq o‘lchab bo‘ladigan maqsadlar va ustuvor vazifalarini belgilash.
- Ekologik ta’sirni baholash, monitoring qilish hamda faoliyat samaradorligini oshirish uchun muntazam ravishda tekshiruvlar va ekologik auditlarni tashkil etish.

4. Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish

- Energiya samaradorligini oshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish orqali issiqxona gazlari chiqindilarini izchil ravishda kamaytirish.
- Global barqarorlik yo‘nalishidagi maqsadlarga faol hissa qo‘sish orqali iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishga qaratilgan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish.

5. Xodimlar va manfaatdor tomonlarning faolligini ta’minlash

- Xodimlar orasida ekologik ongni rivojlantirish maqsadida maxsus o‘quv mashg‘ulotlari va salohiyatni oshirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish.
- Mijozlar, yetkazib beruvchilar hamda mahalliy jamoalar bilan hamkorlikni mustahkamlab, atrof-muhitni asrashga yo‘naltirilgan qo‘shma tashabbus va loyihalarni hayotga tatbiq etish.

6. Barqaror rivojlanish va jamiyatga hissa qo'shish

- Amalga oshirilayotgan loyiha va xizmatlar orqali faoliyat yuritilayotgan hududlarning uzoq muddatli barqarorligiga xizmat qilish.
- Mintaqada ekologik ta'limi qo'llab-quvvatlash va tabiatni muhofaza qilish loyihalarini rag'batlantirish

Ijro va mas'uliyat

Mazkur siyosatni samarali joriy etish hamda ekologik omillarni qarorlar qabul qilish jarayonlariga integratsiya qilish bo'yicha asosiy javobgarlik **"Simplex ITC" MChJ QK** rahbariyat zimmasiga yuklatiladi.

Kompaniya faoliyatida ishtirok etayotgan barcha xodimlar va pudratchilar ushbu siyosatda bayon etilgan tamoyil va talablarni bajarishi, shuningdek, ularni amaliyotda qo'llashda faol ishtirok etishi shart.

Ko'rib chiqish va yangilash

Mazkur Atrof-muhit siyosati har yili, shuningdek, zarurat yuzaga kelganda, amaldagi ekologik me'yoriy hujjatlar va tashkilotning strategik maqsadlariga mosligini ta'minlash maqsadida qayta ko'rib chiqiladi va zarur hollarda yangilanadi.

Tasdiqlangan: Simplex ITC MChJ QK rahbariyati tomonidan

Sana: 01.01.2024

Manzil: O'zbekiston

